


Odilon TOJIYEV
**KAMCHILIKLAR
HAQIDA BARALLA
AYTILYAPTI, LEKIN...**

2-sahifa



**OMBUDSMAN
VATANDOSHLARIMIZ
HAQ-HUQUQINI
TA'MINLAY
OLYAPTIMI?**

2s



**Kim ko'ribdur,
ey ko'ngil,
ahli jahondin
yaxshilig'...**

4-sahifa

milliy tiklanish



«MILLIY TIKLANISH»
DEMOKRATIK
PARTIYASINING IJTIMOYIY-
SIYOSIY GAZETASI

No 5 (1237) 2024-yil 14-fevral, chorshanba

№ 5 036

QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT

ONA TILIMIZ — QADRIMIZ, SHA'NIMIZ IFODASI

**Uning himoyasi haqida tinimsiz
qayg'urishimiz lozim.**

Globalashuv insoniyat uchun beqiyos imkoniyatlar bilan birga kutilmagan xatarlarni ham keltirib chiqaryapti. Ayniqsa, qadriyatlarining qadrsizlanishi, milliy an'ana va urf-odatlar ildizining zaharlanishi, eng yomoni, milliy tillarga bo'lgan munosabatlarining sun'iy lashtirilishi ko'plab millat va elatlarning ona tilidan ayrilib qolish ehtimolini kuchaytirmoqda.

Til millat borligi, birligi, o'tmishi va bugunini aks ettiruvchi oliy bayroq ekan, bugun har qanday xalq uning qadr-qimmatini, himoyasi haqida har daqiqada o'ylashi, tinimsiz qayg'urishi lozim. O'zbek xalqi ham asrlar davomida o'z tili va qadriyatlarini asrab-avaylab, himoya qilib kelmoqda. Ayniqsa, jaded bobolarimiz va millat oydinlari til masalasida hech qachon murosaga bormagan.

Shunday ekan, bugun barchamiz avlod-ajdodlarimiz oldida juda katta qarzdor ekanimizni unutmasligimiz lozim. Ammo keyingi yillarda ona tilimiz rivojini yo'lidagi muammolar ko'payib, tashqi tahdidlar kuchaymoqda.

Ayni paytda global dunyodagi notinch holat fonida Markaziy Osiyoga nisbatan yuzaga keltirilayotgan

tortishuvli vaziyatlar ham ko'pincha til bilan, milliy qadriyatlar bilan bog'lanyaptiki, bundan tegishli xulosalar chiqarmasak, ertaga kech bo'lishi mumkin.

Keyingi kunlarda guvohi bo'layotganimizdek, sobiq imperiyani tiklash haqida norasmiy doiralardan tashqari Rossiyaning rasmiy manbalarida ham fikrlar yangramoqdaki, ularni tahlil qilsak, O'zbekistonda bunday axborot xurujlariga qarshi qanday choralarini ko'rishimiz kerak, degan haqli mulohaza yuzaga keladi.

Davlat tili haqidagi qonunimizga ko'ra, fuqarolar o'z murojaatlarini xohlagan tillarida bildirishlari mumkin. Ya'ni, fuqarolarning xohlagan tilda davlat idoralari murojaat qilishlari belgilab qo'yilgan. Ammo tan olaylik, ayni shu jihat davlat tilining rivojiga xalaqit berayotgan asosiy me'yorlardan biridir. Chunki tajribadan ma'lumki, har qanday tilning rivoji uchun unga birlamchi ehtiyoj paydo qilinishi kerak. Ehtiyoj bo'lmagan til esa o'z-o'zidan zaiflashadi.

Davomi 3-sahifada



SO'Z — hayotning jon bulog'i

Tilshunos olimlar tirik jonning hayoti uchun suv va havo qanchalik zarur bo'lsa, so'z ham inson uchun shunday maqomga ega ekanini ta'kidlashadi. Ravon nutq, jozibali va ta'sirchan talaffuz insonning hech narsaga qiyoslab bo'lmaydigan ma'naviy boyligidir. O'z ona tilida, shu bilan birga boshqa tillarda mukammal so'zlasha oladigan, fikrini tiniq ifoda etishga qodir kishilar fazilat bobida komillikka yaqin turadilar. Ulug' ajdodlarimiz bir emas, bir necha tillarni mukammal egallab, shu tillarda ham barakali ijod qilishgan.

6-sahifa



XO'RLANGAN UYDA FARISHTALAR HAM YIG'LAYDI

Kasbim taqozosi bilan har kuni turli xil fe'l-atvordagi ayollar bilan muloqotda bo'laman. Ular orasida turmush o'rtog'i yoki yaqinlarining zayiq va zo'ravonliklariga uchragan bo'lsa-da, bu haqda sukut saqlashni afzal ko'radiganlari ham bor.

5-sahifa

«MILLIY TIKLANISH»



ANONSLAR

**BIR KUNDA
OTILGAN IKKI
SARLOCHIN YOKI**

21

YILDAN KEYIN
QAYTARIB
BERILGAN 81 SO'M
HAQIDA...

1922-yilning kuzida Germaniyaga o'qishga yuborilgan buxorolik 55 nafar talaba orasida aka-uka Muhammadjon va Rahmatjon Avazjonovlar ham bor edi. Ular yo'lga chiqqanlarida Muhammadjon 17, ukasi Rahmatjon esa 14 yoshga to'lgandi.

7-sahifa

BIROR SOAT HAM KECHIKTIRIB BO'LMAYDIGAN VAZIFALAR QO'YILDI 4s



«MEHRIBON»
SHOGIRD 7s

Xalqimiz farovonligi uchun yana bir muhim qadam



“O'zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi O'zbekiston Prezidentining Farmoni loyihasi keng jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgani yurtimizda ochiqlik, shaffoflik siyosati izchil davom ettirilayotganining yana bir isboti bo'ldi.

Ta'kidlash joiz, mamlakatning buguni va kelajagini belgilab beruvchi, fuqarolarning hayotiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiluvchi muhim hujjatlarni xalqimiz, fuqarolik jamiyati bilan bamaslahat, hamjihatlikda tayyorlash, shubhasiz, odamlarda daxldorlik hissiyatini kuchaytiradi. Ayniqsa, o'zining takliflari, fikrlari inobatga olinayotgani va ularning amalga oshayotganini ko'rgan har bir fuqaroning davlatga ishonchi oshadi, jamiyatdagi faolligi kuchayadi.

O'z navbatida bu kabi muhokamalar har bir davlatning rivojlanishi

uchun muhim bo'lgan kuchli fuqarolik jamiyatini yaratishga xizmat qiladi. O'z navbatida kuchli fuqarolik jamiyati hukumatning yanada hisobdor, mas'uliyatli, samarali ishlashi uchun xizmat qiladi. Bu esa mamlakatning rivojlanishiga, aholi farovonligining o'sishiga olib keladi.

Davlat dasturi aholining barcha qatlami tomonidan keng muhokama qilinganini, unga bo'lgan qiziqishni 2500 dan ortiq kelib tushgan takliflardan ham bilish mumkin.

Davlat dasturining birinchi “Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish”, ya'ni

ijtimoiy yo'nalish dasturning asosini tashkil etib, unda 44 ta maqsad va 110 ta vazifa belgilab olingan.

Darhaqiqat, ijtimoiy soha har bir fuqaroning kundalik hayotiga ta'sir qiladigan ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya kabi muhim masalalarni qamrab oladi. Aynan shuning uchun ham joriy yilda byudjet xarajatlarining 48 foizi yoki 151 trillion so'm ijtimoiy sohaga, xususan, ta'limga 69 trillion, sog'liqni saqlashga 33.4 trillion, ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minotga esa 36.1 trillion so'm yo'naltirish belgilangan.

Davomi 2-sahifada



OMBUDSMAN VATANDOSHLARIMIZ HAQ-HUQUQINI TA'MINLAY OLYAPTIMI?

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasining navbatdagi yig'ilishida Inson huquqlari bo'yicha vakilining (Ombudsman) 2023-yildagi faoliyati muhokama qilindi.

Dastlab shved qirolligida tashkil etilgan Ombudsmanga bugungi kunda «inson huquqlari himoyachisi» sifatida qaraladi va bu institut 1809-yildan boshlab parlamentga ko'chgan. Shu o'rinda shved qiroli aslida ushbu tajribani islom davlatlarida faoliyat yuritgan muhtasiblardan o'rganganini ta'kidlash joiz. Ma'lumki, muhtasiblar islom dini va shariat ahkomi asosida faoliyat yuritib, nazorat funksiyasini bajargan.

Manbalarda qayd etilishicha, Amir Temur davrida ham topshiriqlarni o'z vaqtida bajarmaganlar haqida axborot beruvchi shaxslar bo'lgan. Fuqarolar murojaatlari bilan ishlamagan bunday kishilar esa shaxsan Sohibqiron tomonidan jazolangan. Bu esa Amir Temur bobomizning inson huquqlari buzilishiga yo'l qo'yg'nlarga nisbatan o'ta qat'iy munosabatda bo'lganini ko'rsatadi.

Ombudsman instituti 1995-yilda MDHda birinchilardan bo'lib O'zbekistonda ta'sis etilganini ham aytish joiz. Oliy Majlisning 1997-yil 24-aprelda bo'lib o'tgan sessiyasida «Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida»gi qonun qabul qilinib, unga ko'ra, Vakil o'z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari va mansabdor shaxslarga tobe bo'lmagan tarzda amalga oshirishi belgilandi.

Ombudsman Feruza Eshmatova institutning 2023-yildagi faoliyatiga to'xtalib, o'tgan yili O'zbekiston va xorijiy davlatlar fuqarolaridan, jamoat tashkilotlari va boshqa yuridik shaxslardan 18 622 ta murojaat kelib tushganini qayd etdi. 2022-yilda bu ko'rsatkich 17 761 tani tashkil etgan edi.

Murojaatlarning qariyb 41 foizi xotin-qizlardan, 59 foizi



esa erkaklardan kelgan. Albatta, xotin-qizlardan tushayotgan murojaatlarning 2022-yilga nisbatan kamaygani yaxshi, ammo tahlillarga ko'ra, 2023-yilda maishiy zo'rovonlik, oilaviy ziddiyatlar, er-xotin o'rtasidagi kelishmovchilik holatlari bo'yicha murojaatlar ko'paygan.

Murojaatlar hududlar kesimida tahlil qilinganda, ularning eng ko'pi Qashqadaryo (2818 ta) va Surxondaryo (1759 ta) viloyatlariga hamda Toshkent shahriga (2226 ta), eng kam murojaatlar esa Qoraqalpog'iston Respublikasi (532 ta) va Sirdaryo viloyati (429 ta)ga to'g'ri kelgan. Tumanlar kesimida esa eng ko'p murojaat Koson, Denov, Yunusobod hamda Yashnoboddan bo'lgan.

Hisobot yilida Ombudsmanga ta'lim sohasi bilan bog'liq 248 ta murojaat kelib tushgan va ularning 66 tasi nazoratga olingan. Yoshlarning ta'lim olish huquqi kafolatlanishi hamda o'qituvchilar mehnat huquqlari ta'minlanishi borasida Ombudsmanning tegishli tashkilotlarga qilgan murojaatlari natijasida 5 nafar talabning oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olishlari uchun 24 mln. so'mlik shartnoma puli to'lanishida, 3 nafar voyaga yetmagan bolaning maktabga qabul qilinishi hamda

OMBUDSMAN INSTITUTI 1995-YILDA MDHDA BIRINCHILARDAN BO'LIB O'ZBEKISTONDA TA'SIS ETILGANINI HAM AYTISH JOIZ. OLIY MAJLISNING 1997-YIL 24-APRELD A BO'LIB O'TGAN SESSIYASIDA «OLYI MAJLISNING INSON HUQUQLARI BO'YICHA VAKILI (OMBUDSMAN) TO'G' RISIDA»GI QONUN QABUL QILINIB, UNGA KO'RA, VAKIL O'Z VAKOLATLARINI MUSTAQIL HAMDA DAVLAT ORGANLARI VA MANSABDOR SHAXSLARGA TOBE BO'LMAGAN TARZDA AMALGA OSHIRISHI BELGILANDI.

2 nafar o'qituvchining dars soati tiklanishida, shuningdek, 2 nafar talabaga OTMga qarashli yotoqxonadan joy ajratilishida ko'maklashildi.

Fraksiya a'zosi Nodir Tilavoldiyev Ombudsmanning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi oshganini e'tirof etarkan, institutga 2023-yilda 2022-yilga nisbatan qariyb 1000 ta ko'p murojaat bo'lganining ham yaxshi, ham salbiy tomoni borligini ta'kidladi. Yaxshi tomoni, aholimizning Ombudsmanga bo'lgan ishonchi oshmoqda. Salbiy tomoni esa bu raqam mamlakatimizda inson huquqlari sohasida hali muammolar ko'pligidan dalolat beradi.

Alisher Qodirov Ombudsman hisobotini ijobiy baholab, Rossiyadagi mehnat faoliyati bilan band bo'lgan fuqarolarimiz masalasini ko'tardi. Bugun ushbu davlatda vatandoshlarimizni harbiy harakatlarga jalb qilish uchun norasmiy targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Murojaatlardan ma'lum bo'ldiki, Rossiyada fuqarolarimizni soxta, yolg'on ayblovlar bilan qamash holatlari ko'paygan va qamoqdan ozod bo'lishi uchun esa ularga ma'lum muddat harbiy harakatlarda ishtirok etish talabi qo'yilmoqda. Fuqarolarimiz harbiy harakatlarda bo'layotgan joylarga qanday

borib qoldi, nima uchun, qanday bunga yo'l qo'yildi? Axir jang maydoni tasodifiy joy emas-ku.

– Ombudsman vatandoshlarimizning haq-huquqlarini himoya qilish bo'yicha Rossiya Ombudsmaniga ushbu masalalarda aniq so'rovlar kiritishi juda ham zarur, – dedi Alisher Qodirov.

F.Eshmatova ushbu masalaga munosabat bildirib, Rossiyaning hududiy Ombudsmanni bilan uchrashuvlarda ham bu masalaga ko'p e'tibor qaratilayotgani, lekin ikki o'rtada aniq bir huquqiy hujjat bo'lmagani bois, mulqotlar hamon davom etayotganini ta'kidladi.

Yig'ilish yakunida boshqa deputatlar tomonidan ham Ombudsman faoliyatini yanada takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar bildirildi.

Fraksiya yig'ilishida «Intellektual mulk obyektlarini huquqiy himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida»gi qonuni loyihasi ham muhokama qilindi.

Ma'lumki, firma nomlari ham tovar belgilari, u kelib chiqqan joy nomlari singari intellektual mulk obyekti hisoblanadi. Ammo ayrim insofsiz tadbirkorlik

subyektlari tomonidan mashhur xorijiy va milliy firma nomlariga o'zlarining firma nomlarini adashtirib yuborish darajasida o'xshash etib ro'yxatdan o'tkazib, reklamalarda, mahsulotlar o'rovlarida foydalanib kelinmoqda.

Adliya organlari tomonidan 2022-yilda bu turdagi 14 ta holat bo'yicha tegishli choralar qo'llanilgan. Biroq bu turdagi huquqbuzarliklarga nisbatan ma'muriy jazo choralar yetarli samara bermayapti. Tayinlanayotgan jarimalar bevosita davlat foydasiga undirilayotgani esa, huquq egalari-da hech qanday manfaatdorlik keltirmayapti. Shu bois, bu jarayonlarga birinchi navbatda huquq egasining manfaatdorligini oshirishga qaratilgan yangi tartiblarni joriy qilish talabi yuzaga keldi.

Ushbu qonun loyihasi bilan aynan sanoat mulki obyektidan qonunga xilof ravishda foydalanish natijasida yetkazilgan zararining o'rniga tovon talab qilish tartibi kiritilmoqda. Xususan, patent egasi huquqbuzardan bazaviy hisoblash miqdorining 1000 baravarigacha (340 mln. so'm) miqdorda tovon to'lashni talab qilishi mumkin.

Ravshan MAHMUDOV,
«Milliy tiklanish» muxbiri

✓ Munosabat

Kamchiliklar haqida baralla aytilyapti, lekin....

Jamiyatimizda uy-joy va kommunal xo'jaligi, qurilish, transport va ekologiya sohalarida qator tizimli kamchiliklar saqlanib qolmoqda, ayrim hollarda esa vaziyat hatto yomonlashib ham ketyapti. Davlatimiz rahbari muammolarga samarali yechimlar topib, soha mas'ullari oldiga muhim vazifalar qo'ydi.

Joriy yilning 29-yanvar kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida tanqidiy ruhda o'tgan videoselektor yig'ilishida eng ko'p duch keladigan jabhalardagi nuqsonlarning asl sabablari ko'rib chiqildi. Faoliyatida sustkashlikka yo'l qo'yg'nan bir qator rahbarlarga intizomiy choralar ham qo'llandi. Transport, kommunikatsiyalar, qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi tizimidagi vazir va hokim o'rinbosarlari faoliyatiga samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) joriy etilishi belgilandi. 2025-yil 1-yanvardan loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlashda, qurilishda va obyektlarni qabul qilishda resurs usulidan voz kechilib,

hajm usuliga o'tiladi. Bu tartibni shu yil 1-iyuldan yo'l, ichimlik suvi va ko'prik qurilishi loyihalarida joriy qilish topshirig'i berildi. Mazkur sohalarini korrupsiyadan holi qilish maqsadida qurilishda tuziladigan shartnomalar raqamlashtiriladi, pudratchi tashkilot bajargan ishlar faqat soliq organiga taqdim etilgan elektron hisob-fakturadan kelib chiqib moliyalashtirilishi belgilandi. Obyektni foydalanishga qabul qilish jarayoni ham raqamlashtirilib, dalolatnomalar «Shaffof qurilish» milliy axborot tizimida tasdiqlanadi. Qiymati 10 milliard so'mdan ortiq bo'lgan loyihalar bo'yicha subpudratchilarni tanlash ham mazkur tizim orqali yo'lga qo'yiladi. Shu va boshqa bir qator yangiliklar va vazifalardan «yashirin iqtisodiyot»ga chek qo'yish maqsadi ham ko'zlangan. Prezidentimiz tomonidan tarmoqlarni modernizatsiya qilish, samaradorlikni keskin oshirish bo'yicha original yechimlar, zarur ko'rsatmalar berildi. Shu bilan birga, joriy yilda 80 ming xonadonli 1 ming 800 ta uy-joy va 45 ta «Yangi O'zbekiston» massivlari barpo etilishi e'lon qilindi. Keng ko'lami qurilishlar, albatta, tegishli nazoratsiz amalga oshirilmaydi. Yig'ilishda ekologik nazoratga ayniqsa, katta

e'tibor qaratildi. Xususan, 1-apreldan boshlab har bir hududning havo, suv va atrof-muhit ifloslanish darajasiga qarab tuziladigan reytingi joriy qilinadigan bo'ldi. Ko'rib chiqilgan masalalar va topshirilgan vazifalar ko'lamidan, mohiyatidan xulosa qilish mumkin, xalqimizni tashvishlantirayotgan muammolarni o'z vaqtida aniqlab, sinchiklab o'rganib chiqib, amaliy yechimlarni taklif qilishda aslida biz, qonun chiqaruvchilar jonbozlik ko'rsatishimiz kerak. Bunday masalalar aksar hollarda Davlatimiz rahbarining bevosita aralashuvishi, deputatlar va ijroiya hokimiyatining o'zaro hamkorligida hal etiladigan muammolardir. Videoselektor yig'ilishida muhokama qilingan mavzu va yo'nalishlarda Prezidentimiz ilgari surgan tashabbuslarni hayotga samarali tatbiq etishda, ko'rsatmalarni so'zsiz bajarishda, yangi tizim va uslublarni joriy qilishda oliy vakillik organi sifatida biz vazirliklar, mahalliy hokimiyat organlari bilan yaqindan ishlaymiz, berilgan topshiriqlarning ijro etilishi ustidan ishonchli nazoratni amalga oshiramiz.

Odiljon TOJIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari



Xalqimiz farovonligi uchun yana bir muhim qadam

Ma'lumki, yangilangan Konstitutsiyamizning 1-moddasida O'zbekiston ijtimoiy davlat ekanligi o'z aksini topdi. «Ijtimoiy davlat» esa «Inson qadriini ulug'lash» tushunchasi bilan bevosita bog'liq. Ijtimoiy davlat avvalo sifatli ta'lim-tarbiya, inson kapitalini rivojlantirish, malakali tibbiy yordam, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashdir. Shu ma'noda, davlat tomonidan o'z zimmasiga olingan bunday mas'uliyatni amalga oshirish maqsadida farmon loyihasida ham, davlat dasturining amaliy tadbirlar rejasida ham bir nechta muhim tashabbuslar, vazifalar ilgari surilmoqda. Jumladan, farmon loyihasining 16-bandida ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida yolg'iz yashayotgan hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga Toshkent shahrida eksperiment tariqasida tegishli yo'nalishdagi nodavlat tashkilotlar orqali ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish amaliyoti yo'lga qo'yish; nogironligi bo'lgan shaxslarni zamonaviy protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilish texnik vositalari bilan ta'minlashning yangi tizimi bosqichma bosqich joriy qilish rejalashtirilgan. Dasturining amaliy tadbirlar rejasida esa har bir tumanda tashkil qilingan «Inson» ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan har bir mahalladagi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini to'liq qamrab olish, ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirish, kambag'al aholi balansini shakllantirishda Xitoyning «Indeks kartalar» platformasi asosida dasturiy ta'minotni yaratish orqali ijtimoiy himoya samaradorligini oshirish maqsad qilingan. Ishonch bilan aytish mumkin, davlat dasturi takliflar asosida yanada takomillashtirilib, joriy yildagi xalqimiz manfaatiga xizmat qiladigan, shu bilan birga «O'zbekiston – 2030 strategiyasi»dagi maqsadlarga yaqinlashtiradigan muhim hujjat bo'ladi.

Nodir TILAVOLDIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

(Boshlanishi 1-sahifada)

ONA TILIMIZ – QADRIMIZ. SHA'NIMIZ IFODASI

(Boshlanishi 1-sahifada)

Shu o'rinda rus millatiga mansub va boshqa o'zga millatli vatandoshlarimizning qadriyati, tili va milliy an'alarini saqlash Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilganini alohida ta'kidlash joiz. Lekin til haqida gap ketganda, boshqa masalalar yuzaga chiqadiki, bundan ko'z yumib bo'lmaydi. Masalan, O'zbekistonda jami aholi tarkibida rus vatandoshlarimiz 2-2,5 foizni tashkil qiladi. Ammo e'tibor bersangiz, bugun maktab va bog'chalarimizda rus tilida ta'lim berishga keragidan ortiq e'tibor qaratilyapti. Zotan, yuqorida ta'kidlaganimizdek, til oddiy masala emas. Qaysiki, millat o'z tiliga munosabatini o'zgartirsa, tilidan uzoqlasha, bunday millatlar yo'q bo'lib ketishi mumkinligi haqida tarixdan istagancha misollar keltirish mumkin. E'tibor bering: bugun uch ming yillik davlatchilik tariximiz haqida kuyunib, faxrlanib gapiryapmizu, biroq ana shunday bir paytda o'zbek tili qonun, texnologik rivojlanish tiliga aylana olmaganini bizni xavotirga solishi kerak, deb o'ylaymiz.

Ayni paytda ko'plab ota-onalar farzandlarini ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarga beryapti. Shubha yo'qki, ular bolam til bilsin, degan e'zgu maqsadda shunday yo'l tutyapti. Lekin bu davr bola hayotining poydevori tiklanadigan, ongi, qadriyatlarini shakllanadigan payt hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaga o'zligini bilish masalalari singdirilishi kerak. Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy kabi davlatlarda bolalarga ayni shu davrda milliy o'zlikni anglash o'rgatilishi ham shundan. Yana bir masala: davlat tili haqidagi qonunimizga ko'ra, fuqarolar o'z murojaatlarini xohlagan tillarida bildirishlari mumkin. Ya'ni, fuqarolarning xohlagan tilda davlat idoralariga murojaat qilishlari belgilab qo'yilgan. Ammo tan olaylik, ayni shu jihat davlat tilining rivojiga xalaqit berayotgan asosiy me'yorlardan biridir. Chunki tajribadan ma'lumki, har qanday tilning rivoji uchun unga birlamchi ehtiyoj paydo qilinishi kerak. Ehtiyoj bo'lmagan til esa o'z-o'zidan zaiflashadi. Nima uchun mamlakatimizda O'zbekiston fuqarolari bo'lgan millatlarning o'zaro muloqot tili boshqa til bo'lishi kerak? Milliy qadriyat sifatida barcha millat o'z tillarini o'rganishi, muloqotda ishlalishi va rivojlantirishi uchun sharoit yaratish Konstitutsiyaviy shart, bu bajarilishi lozim. Lekin nima uchun o'z fuqarolarimiz orasidagi muloqot tili sifatida davlat tilining ustuvorligidan voz kechishimiz kerak? Bu davlat tiliga hurmatsizlik!



tillarni o'rganishni esa yuqori sinflardan boshlash maqsadga muvofiq. Eng qizig'i, ayni shu fikrimillatchilik deya talqin qilindi. Vaholanki, o'zbek xalqi hech qachon millatchi bo'lmagan. Shunday bo'lganda edi, Ikkinchi jahon urushi davrida bir to'g'ram nonini bo'lib, ham rusga, ham nemisga bermagan bo'lardi. Ma'lumki, sobiq ittifoq davrida millatlar ustida juda ko'p mafkuraviy tajribalar o'tkazildi. Afsuski, bunday tarbiyaviy ta'sirlar asorati hali ham yo'qolib ketmadi. Ba'zi yurtdoshlarimizni bilaman, millati o'zbek, lekin ona tilini bilmaydi. Shu haqda gapirsang yoki til haqida, o'zbek qadriyatlarini haqida fikr bildirsang, millatchilikka

bering, bu o'ylab ko'radigan raqam. Ana shu 250 mingning 80 foizi, afsuski, o'zbek. Aytning, qanday ota-onaki, farzandi birinchi sinfdan o'z qadriyatiga teskari, ongu tafakkuri, o'lehov mezonlari va milliy madaniyatiga zid bo'lgan tilda savod chiqarishiga yo'l qo'yib beryapti. Agar bunga bir-ikki oilaning muammosi deb qarasa, katta xato bo'ladi. Bu – jamiyatimiz muammosi. Tilni yo'qotish, unga befarqlik ham aynan shu nuqtadan boshlanayapti, aslida. To'g'ri, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'lim tilini tanlash ota-onalar ixtiyorida, deb belgilab qo'yilgan. Ammo ba'zi ota-onalar esa go'yo farzandi kelajagini o'ylab, ular boshqa tilda savod chiqarishiga yo'l qo'yib

” GERMANIYADA NEMIS TILIDAN BOSHQA TILDA DAVLAT IDORALARIGA MUROJAAT QILISH QONUNGA ZID SANALADI. AGAR BOSHQA TILDA MUROJAAT QILSANGIZ, U NAFAQAT KO'RIB CHIQLIMAYDI, BALKI BUNING UCHUN JARIMAGA HAM TORTILASIZ.

bermoqda. Bu shaxsning qonuniy huquqi emas, bu mamlakat oldidagi, qadriyatlarimiz oldidagi majburiyat sifatida talqin qilinishi, ta'lim tili milliy qadriyati va millatidan kelib chiqqan holda tanlanishiga alohida e'tibor berilishi kerak. Videoselektorda maktablarda og'riqli masalalardan biri, bu – tarbiya va ma'naviyat ekaniga alohida urg'u berildi. O'tgan yili voyaga yetmaganlar tomonidan 3,5 mingta jinoyat sodir etilgan va shundan 2 280 tasini maktab o'quvchilari sodir qilgan. Davlat rahbari tomonidan o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali ularni "huquqbuzarlikka qarshi immunitet" hosil qilish tizimini yaratish zarurligi ta'kidlandi. Mutasaddilarga bolalar tarbiyasini yaxshilash, ota-onalar dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan milliy kontentni mahalla va ta'lim muassasalariga yetkazib turish, "maktab – ota-ona – mahalla" janri asosida elektron muloqot platformasini ishga tushirish topshirildi. Chindan ham, farzandlar tarbiyasida tilning o'rni nihoyatda muhim ekanini isbot talab qilmaydigan haqiqat. Zero, bolaning og'ri, dunyoqarashi til orqali shakllanadi va rivojlanadi. Bolaning ilk davri uchun muhim hayotiy kashfiyot: bog'chada – muloqot, maktabda – bilim begona tilda berilsa, tilimiz rivojlanmaydi, qadriyatimiz ildizlariga suv bormaydi, aksincha, uni zaiflik dunyosi o'rab-chirmab bo'rayapti. Millat, til va Vatan tanlanmaydi, ular Yaratganning ne'matlaridir. Ularni avaylash, rivojlantirish va avlodlarga bezavol yetkazish esa har birimiz uchun muqaddas burch. Vatansavarlik, qadriyatlarini himoya qilish bugun davlatlar uchun hayot-mamot masalasiga aylandi. Ayniqsa, XXI asrda qadriyatlarini bir daraxtga o'xshatadigan bo'lsak, ayni paytda uning ildizini chopishga harakatlar tinmayapti. Qadriyatlarini kim himoya qiladi? Albatta, avvalo, o'z qadriini, o'z g'alar qadriini hurmat qiladigan, jamiyatni, xalqini o'ylaydigan vatanparvarlar himoya qiladi.

chuqur o'rganish tashabbuslari qo'llab-quvvatlanishi lozim. Bugun ta'lim tizimida, televideniye, hatto ayrim huquqiy hujjatlarda ham rus tilining ta'siri kuchli ekanini yaxshi bilamiz. Ma'lumotlarga qaraganda, Germaniyada nemis tilidan boshqa tilda davlat idoralariga murojaat qilish qonunga zid sanaladi. Agar boshqa tilda murojaat qilsangiz, u nafaqat ko'rib chiqilmaydi, balki buning uchun jarimaga ham tortilasiz. Nazarimda, davlat tiliga munosabatni shunday shakllantirish orqali nemis tiliga bo'lgan ehtiyoj yuzaga keltirilgan. Biz esa haligacha ana shu ehtiyojni paydo qilishga botinolmayapmiz. Shuning uchun ham qonunlardagi til rivojiga to'siq bo'layotgan me'yorlarni o'zgartirish va bu borada yanada kuchliroq me'yorlarni ishlab chiqish payti keldi, deb hisoblayman. Yaqinda shu haqda fikr bildirganimda rus segmentidagi axborot vositalari buni noto'g'ri talqin qildi. Ya'ni, boshlang'ich ta'lim ona tilida bo'lishi kerak, degan gapimni o'zbek tilida deb tarjima qilishdi. Men esa har qanday o'zbek bolasi o'zbek tilida, rus bolasi esa rus tilida boshlang'ich ta'lim olsin, degan fikrni bildirganman. Odatda birinchi sinfga borayotgan bolani qanday tili maktabga berish ota-onalarning tanlovi, deyishadi. Ammo oramizda o'z bolasining umuman maktabda o'qishiga ham qarshi bo'ladigan ota-onalar yo'q deysizmi? Bor, albatta. Shuning uchun ham bola o'zbek millatiga mansubmi, boshlang'ich ta'limni ham o'z ona tilida olishi kerak. Xorijiy

” BUGUN UCH MING YILLIK DAVLATCHILIK TARIXIMIZ HAQIDA KUYUNIB, FAXRLANIB GAPIRYAPMIZU, BIROQ ANA SHUNDAY BIR PAYTDA O'ZBEK TILI QONUN, TEXNOLOGIK RIVOJLANISH TILIGA AYLANA OLMAGANI BIZNI XAVOTIRGA SOLISHI KERAK.

O'zbekistonda davlat tili bo'lgan o'zbek tili ta'lim va ish yuritishda majburiyat, millatlararo muloqotda ustuvor bo'lishi shart! O'zaro muloqotda esa istagan tilda gaplashish tabiiy huquq, albatta. Milliy taraqqiyotimiz va tariximizni puxta o'rganishimiz zaruratan kelib chiqib, fuqarolarimizning ingliz, xitoy, rus va arab tillarini

✓ Kuting!



«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASI, MADANIYAT VAZIRLIGI HAMDA ALISHER NAVOIY NOMIDAGI XALQARO JAMOAT FONDI TASHABBUSI BILAN ADABIYOTSHUNOS, JURNALIST VA OLIMLARDAN IBORAT BIR GURUH ZIYOLILAR ERON ISLOM RESPUBLIKASIDA

NAVOIY MEROSINI O'RGANISHYAPTI

Kelgusi sonlarda

Alisher QODIROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari,
«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Markaziy kengashi raisi.
«Xalq so'zi» gazetasining 2024-yil 13-fevral sonidan olindi



Мухтарам ўқувчи! Биз 2022-2023 йиллар давомида таниқли тарихчи олим Баҳром Ирзаев билан ҳамкорликда тарихнинг биз билган ва билмаган қатлари, айниқса, катагон йилларида адолатсизликлар қурбони бўлган жадидларимиз, миллат ойдинларининг аччиқ қисматлари ҳақида ҳикоя қилдик. 2024 йилда ҳам ушбу анъанани давом эттириш ниятидамиз.



БИР КУНДА ОТИЛГАН ИККИ САВЯЛОШИН

1922 йилнинг кузида Германияга ўқишга юборилган бухоролик 55 нафар талаба орасида ака-ука Мухаммадjon ва Раҳматjon Авазjonовлар ҳам бор эди. Улар йўлга чиққанларида Мухаммадjon 17, укаси Раҳматjon эса 14 ёшга тўлганди.

ёки 21 йилдан кейин қайтариб берилган 81 сўм ҳақида...

Авазjonовлар ватандошлари Исоимиддин Аловуддинов (текстил соҳасида олий маълумот олган) ва Абдулла Пўлатовлар (кишлоқ ҳўжалиги йўналишида ўқиган) билан бирга СССР га қайтадилар.

КАЙТИШ...
1928 йилнинг сентябрида Самарқандга етиб келган Мухаммадjon Авазjonов ва Исоимиддин Аловуддиновлари Ўзбекистон ҳукумати раҳбари Фаизулла Хўжаев ўз кабинетиде кутиб олади. Ҳукумат раҳбари уларни табриқлаб, келажак вазиқалари билан кизиқлади. Шундан сўнг уларга бироз миқдорда пул беради ва улар Бухорога йўл олади.

Москвага чақириб оладилар. У 1928 йили асоссиз сабаблар билан саккиз кун ҳибсда сақланади. Бундан хабар топанган Мухаммадjon Авазjonов укасининг тақдириндан хавотир олиб, Фаизулла Хўжаевдан ёрдам сўрайди. Шундан кейин Раҳматjon озод қилинади. Аммо на Германия ва на Ватанга қайтади. Москвада қолиб, дастлаб Москва шаҳридаги «Эркин меҳнат»

йилнинг кузиде дунёга келган фарзандлари Анхмининг суратини йўларди. Не армонки, бир-бирига боғланган икки оташин қалб эгаси учун дийдор насиб этмайдди...

«УМИД ЭНГ ОХИРИДА ҲАҚИДА»...
Сўнгги нафасигача уйга қайтишни истаган бу йиғитлар қисмати билан таниша туриб, қайсиқидир киноде эшитганим юқоридаги ибора ёдига тушди. 1935 йилга келиб, севган ёри ва фарзандини қайта кўришдан умидини узган Раҳматjon Тошқентга қайтади ва Тошқент текстил комбинатида цех бошлиғи, муҳандис сифатида иш бошлади.

хуллас ҳамма нарса хатлаб олиб кетилади. Унинг турмуш ўртоғи Махбуба Авазjonова 7 яшар ўғли Иноят ва 4 ёшли қизи Любалар билан бўм-бўш уйда, бир чакасиз қоладилар. Табиатан хассос қалб эгаси бўлган Мухаммадjon адабиётни жуда севар, бўш вақтларида Германиядан келтирган фотоаппарати билан турли табиат манзараларини, тарихий биноларни, дўстлар базмлари, одамларни суратга оларди. 1937 йилнинг 9 сентябрида ўтказилган илк сўроқда терговчи асосий эътиборни ана шу суратларга қаратади. Ва, ҳеч қандай асосларсиз Мухаммадjon Авазjonова Германия жоусуи деган айб қўйиб, унга ЎзССР Жиноят Кодексининг 57 моддаси I қисми (Ватанга хиёнат, ҳарбий ва давлат сирларини сотиш, шпионаж), 58 (қуролли қўлга олинганде ҳаракат), 64 (Совет давлатига қарши теракт), 67 (аксилнқилобий ташқилотга аъзолик) моддалари билан айбдор деб топилиб олий жазога ҳукм этилади.

Уканинг суди ҳам акаси Мухаммадjonники билан бир кунда, яъни 1938 йилнинг 9 октябрь куни бўлиб ўтади ва 20 дақиқа давом этади... «Қонхўр учлик» ҳудосаси билан Раҳматjon ЎзССР ЖКнинг 57-1 (Ватанга хиёнат, ҳарбий ва давлат сирларини сотиш, шпионаж), 58 (қуролли қўлга олинганде ҳаракат), 64 (Совет давлатига қарши теракт), 67 (аксилнқилобий ташқилотга аъзолик) моддалари билан айбдор деб топилиб олий жазога ҳукм этилади.

“ЖАҲОЛАТ, ҚАБОҲАТ, ТУҲМАТУ ҲИЙЛАЛАР АСОСИГА ҚУРИЛГАН ТУЗУМНИНГ ЧИРКИНЛИГИНИ ШУНДАН ҲАМ КЎРИШ МУМКИНКИ, МУҲАММАДЖОННИ ҚАМОҚҚА ОЛИШ ТЎҒРИСИДАГИ ОРДЕР 1937 ЙИЛНИНГ 11 НОЯБРИДА, ЯЪНИ АЙВЛАНИШИДАН ИККИ ҲАФТА ҲАҚИДА...

комбинатида бош муҳандис ва ишлаб чиқариш бўлими раҳбари бўлиб ишлаган пайтларда бундай муносабат энг юқори чўққига чиқди ва бу қорхона Мухаммадjon Авазjonов учун сўнгги фаолият манзили бўлди. Укаси Раҳматjon Авазjonов эса Германиядаги таҳсилнинг охириги йилида гўзал немис қизи Эльза Прагер билан танишиб, унга кўнгли қўяди. Таассуфи, уларнинг расман оила қуриш таралдуғига тушганини пайкаган совет ҳуфялари Раҳматjonни босим ёки алдов йўли билан

тўқимачилик фабрикасида, 1930-35 йилларда эса Москва чарм ишлаб чиқарувчилар иттифоқи лабораториясида фаолият олиб боради. Шу вақт мобайнида Германиядан аёли ва фарзандини олиб келиш ёки уларнинг олдига бориш учун рухсат сўраб маскул идораларга тинимсиз мурожаат қилади. Афсуски, ижобий жавоб ололмади. 1930 йилда эса бир неча бор Германия элчионасига ҳам боради. Бу пайтда Германияда қолган Эльза Раҳматjonга меҳр тўла соғинч мактубларини ёзар ҳамда 1928

– Ким халиги одам? – дедим чой қуйиб. Домла бир чмирилли-ю, тагин индамади. Харқалай, ўша «меҳрибон шогирд» кимлигини жудаям билгим келарди.

– Домла, – дедим, – бояги одам ўзимизда ўқиганми?

Озод ака базўр чидаб ўтирган эканми, бирдан портлади.

– Хой! – деди қўлини паҳса қилиб. – Қанака эзма одамсиз? Жимгина ўтира оласизми, йўқми? Билмайман! Эшитдингизми? Танайман! Умуман танишни ҳам хохламайман! Ўз холимига қўясизми-йўқми? Дамим ичимга тушиб кетди. Ташқари чикчанимизда «шумлигим» тутди. Озод аканинг қулониға секин шипшидим.

– Умарали ака! Анови шогирдингиз яна келаяпти. Хайрлашмоқчи шекилли.

Озод ака аланг-жаланг қаради-да, ўзини машинага урди.

– Хайданг, – деди эшикни ёпиб. – Хайданг, чўрт побери! Тезроқ кетайлик шу ердан.

✓ Мутлола

«МЕҲРИБОН» ШОГИРД

Ёзда Озод Шарафиддинов билан Фарғонада дам олдик. Тўй мавсуми авжига чиққани учунми, Худонинг берган кунни сахарги ошга таклиф қилишди. Хўроз қичқирмасдан туриш малол келди. Аммо айтилган жойга бормаслик ҳам одобсизлик. Бир кунни Озод ака иккинчи қаватдан хўшламайроқ тушди.

– Чўрт побери, кечаси билан бикиним оғриб чиқди, – деди полиб. – Даволанишга келганимизми, тўйма-тўй юришганими?

Санаторий дарвозасида, одатдагидек, машина кутиб турган экан. Гизиллатиб олиб кетишди. Тўйхонага киришимиз билан «Умарали ака-а-а!» деган хайқирик янгради. Сўртотқ тағида ўтирган найов, саксовулдек чайир одам сапчиб туриб биз томонга келаверди. Эрталабдан «отиб» олгани кўришиб турибди. Оёқлари чалишиб кетаяпти. Икки юзи тўйиб мош еган хўрознинг тоғисидек кил-қизил. Яна бир марта «Умарали-ака-а-а!» деди-да, Озод акани даст кўтариб чирпирак қилиб айлантира бошлади. Домланинг у юзидан, бу юзидан ўпавериб шилта қилиб ташлади.

– Бормисиз, Умарали ака? Соғмисиз,

домлажон? Эшик-ёллар тинчми, домлажон? Неваралар чопқиллаб юрибдим, домлажон? Соғинтириб юбордингиз-ку, домлажон!

Ўпгани ҳам бор бўлсин! Хар «домлажон» деганида Озод акани силкитиб-силкитиб қўяди. Озод ака «Мен... Мен» дейди-ю, «Умарали эмасман», дейишга бояги одам қўймайди. Домла «кечаси билан бикиним оғриб чиқди», дегани эсимга тушиб, ачиниб кетаяман. Бир зумда Озод ака бошигача терлаб, қизариб кетди. Нукул хансираб нафас олади. Бояги одам домлани ерга қўйди-да, менга юзланди.

– Эркин ака-а-а! – деди хайқириб. Қураш тушадиган полвонлардек қулочини кенг ёйганича тепамга бостириб келаверди. Қарасам, қовурғамни дазмоллаб ташлайдиган! Шоша-пиша, ўзимни одамлар орасига урдим.

Домла иккаламизни алоҳида хонага олиб кирди. Озод ака ҳамон хансираб нафас олар, пайдарпай рўмолча билан юзини артар эди.

– Бояги одам ким? – дедим пон ушата-ётиб.

Домла эшитмадим, жавоб бермади.

– Ким халиги одам? – дедим чой қуйиб. Домла бир чмирилли-ю, тагин индамади. Харқалай, ўша «меҳрибон шогирд» кимлигини жудаям билгим келарди.

– Домла, – дедим, – бояги одам ўзимизда ўқиганми?

Озод ака базўр чидаб ўтирган эканми, бирдан портлади.

– Хой! – деди қўлини паҳса қилиб. – Қанака эзма одамсиз? Жимгина ўтира оласизми, йўқми? Билмайман! Эшитдингизми? Танайман! Умуман танишни ҳам хохламайман! Ўз холимига қўясизми-йўқми? Дамим ичимга тушиб кетди. Ташқари чикчанимизда «шумлигим» тутди. Озод аканинг қулониға секин шипшидим.

– Умарали ака! Анови шогирдингиз яна келаяпти. Хайрлашмоқчи шекилли.

Озод ака аланг-жаланг қаради-да, ўзини машинага урди.

– Хайданг, – деди эшикни ёпиб. – Хайданг, чўрт побери! Тезроқ кетайлик шу ердан.

Ўткир ҲОШИМОВнинг «Икки қарра икки – беиш» китобидан.

ҲАКИҚАТ БУКИЛАДИ, АММО...
Сталинча катагонларнинг фойш этилиши жараёнида Мухаммадjon ва Раҳматjon Авазjonовларнинг ишлари ҳам қайта кўриб чиқилди. Раҳматjon Авазjonов 1957 йил 20 сентябрда СССР Олий Суди ҳарбий коллегиясининг қарори билан оқланди. Мухаммадjon Авазjonовнинг иши эса қайта кўрилади. У билан бирга ишлаган кишилар гувоҳ сифатида қайта сўроқ қилинган. Ўша вақтда Тошқент текстил комбинатиға қарашли мактаб директори бўлган Розенцивт Леонид Моисеевич 1956 йил 9 ноябр куни Мухаммадjon Авазjonов ҳақида қўйилганларни ҳикоя қилади: «Мен 1934 йил Иваново текстил техникумини тугатиб, Тошқент текстил комбинатиға ишга юборилганман. Бу ерда кадрлар тайёрлаш курси раҳбари сифатида Фарғона текстил комбинати ва унинг қошидаги Держинский номли техникум билан ҳамкорликда ишлардик. Мен Фарғона текстил комбинатининг ишлаб чиқариш бўлими раҳбари ва Фарғона техникуми ўқитувчиси бўлган Мухаммадjon Авазjonов билан 1935 йилда бир йилдан кўпроқ мулоқотда бўлганман. Менда у текстил соҳасидаги технологияларни мукамал билувчи ва хар томонлама етуқ мутахассис сифатида таассурот қолдирган. Шу вақт давомиде бирор марта уларнинг аксилнқилобий фаолиятини сезмаганман ёки бирор одамдан шунга ўхшаш фикрларни ҳам эшитмаганман».

Укаси оқланганидан сўнг уч кун ўтиб, Мухаммадjon Авазjonов ҳам оқланади. Шу ўринда бир жиҳатга эътибор қаратсак: унинг рафикаси Махбуба Авазjonовага 81 сўм 96 тишин қайтариб берилди. Ёш бўлишиға қарамай шижоат билан Германияга ўқишга борган, тақдирнинг «шум» ўйинлари сабаб жувонмарг бўлган ака-ука Авазjonовларнинг аччиқ қисмати ҳақида ўқиган киши борки, шубҳасиз, қўзига ёш олади...



Жонимдин ўзга ёри вафодор топмадим,
Кўнглумдин ўзга махрами асрор топмадим.
Жонимдек ўзга жонни дилафгор кўрмадим,
Кўнглим киби кўнгулни гирифтор топмадим.
Усрук кўзига токи кўнгул бўлди мубғало,
Ҳаргиз бу телбани яна хушёр топмадим.
Ночор фурқати била хўй этмишам, нетай,
Чун васлига ўзумни сазовор топмадим.
Бори бора эшигига бу навбат, эй кўнгул,
Нечаки бориб эшигига бор топмадим.
Бобур, ўзунгни ўргата кўр ёрсизки, мен
Истаб жаҳонни, мунча қилиб, ёр топмадим

Гофил ўлма, эй соқий, гул чоғин ғанимат тут!
Вақти айш эмас боқий, ол чоғир, кетур, бот тут!
Бу насиҳатим тингла: не бўлур киши ёнгла,
Не бўлур экин тонгла, сен бу кун ғанимат тут!
Гофил ўлма давлатта, ўзни солма мехнатга,
Тангри берур албатта, давлат иста, ҳиммат тут!
Хуштурур висоли ёр, анда бўлмаса дайёр,
Бўлса васл беағёр давлату саодат тут!
Ғам черики беҳаддур, чораси будур, Бобур:
Бодани кўмак келтур, жомни ҳимоят тут!

Хати – бинафша, хади – лола, зулфи райҳондур,
Баҳори ҳусида юзи ажаб гулистондур.
Ики менги ою доғи юзу сўзи гулу мул,
Қади равону тани жону ирни маржондур.
Қошида чину кўзида кину ангабин лабида,
Сўзида заҳр ва лекин тилида дармондур.
Қошинга кўп бора олмон, нетай, ароликда,
Ёшим тишинг дуридин айру баҳри Умондур.
Ўтумни тез этасен ҳар тарафга секретиб от,
Саманди ноз иноини бир бери ёндур.
Не навъ васф қилай суратинг латофатини –
Ки, хуснунга сенинг, эй рух, ақл ҳайрондур.
Жафою жавр агар қилса, Бобуро, нетайин,
Не ихтиёр манга, ҳар не қилса, султондур.

Кўнглумни чу ул пари олибтур,
Девона бўлурға не қолибтур?!
Бедил эканимни эмди билгай,
Чун бир киши кўнглини олибтур.
Кўнглумни олиб, тағофулин кўр,
Билмасга ўзини не солибтур.
Зулфунг черигини йиғки, жамъи
Бу фитнадин асру кўзғолибтур.
Бобур, неча кун кўнгулни хуш тут,
Бу олам иши чун мунқалибтур.

Гул жамолин ёпқон ул гулнинг ики райҳонидур,
Ғунча сиррин очқон ул икки лаби хандонидур.
Ул мусалсал икки зулфи гул юзининг даврида,
Гул уза ағнар, магар ул иккининг давронидур.
Ўқи захмини кўруб ҳар ён танимда, эл дегай –
Ким, бу кўхи дардинг ул лолан нуъмонидур.
Сел эмасдур ер юзин тутқон – кўзумнинг ёшидур!
Раъд эмасдур кўкка чирмашқон – кўнгул афғонидур!
Ложарам, бўлғай паришону хавоий мен киби
Зарра янглиг кимки бир хуршид саргардонидур.
Ул пари ишқиде, Бобур, кўнглум андоқ телбадур –
Ким, сочи занжиридур, чохи зақан зиндонидур.

Менинг кўнглумки, гулнинг ғунчасидек таҳ-батаҳ қондур,
Агар юз минг баҳор ўлса, очилмоғи не имкондур.
Агар ул қоши ёсиз боғ гаштин оруз қилсам,
Кўзумга ўқдурур сарву кўнгулга ғунча пайкондур.
Баҳору боғ сайрин не қилайким, дилситонимнинг
Юзи – гул, зулфи – сунбул, қомаги сарви хиромондур.
Висоли лаззатидин руҳ топмоғлиқ арур душвор,
Фироқи шиддатиде йўқса жон бермаклик осондур.
Бошидин эврлур армони бирла ўлдум, эй Бобур,
Менинг наъшимни бори ул пари кўйинин айлондур.

Ғурбатта ул ой ҳажри мени пир қилибтур,
Ҳижрон била ғурбат манга таъсир қилибтур.
Мақдур боринча қилурам саъийи висолинг,
То Тенгрини, билмонки, не тақдир қилибтур.
Тақдирдур ул ёну бу ён солғучи, йўқса,
Кимга қаваси Санбалу Таттир қилибтур?
Бу Ҳинд ери хосилидин кўп кўнгул олдим,
Не судки, бу ер мени дилгир қилибтур.
Сендин бу қадар қолди йироқ – ўлмади Бобур,
Маъзур тут, эй ёрки, тақсир қилибтур.

Не хуш бўлғайки, бир кун уйқулуқ бахтимни уйғотсам,
Кечалар тори мўйидек белига чирмашиб ётсам.
Ғаҳи гулдек юзини ул шакар сўзлукнинг исласам,
Ғаҳи шақкар киби ул юзи гулнинг лаълидин тотсам.
Қани Ширин била Лайлики, сендин ноз ўрганса?
Қани Фарҳоду Мажнунким, аларга ишқ ўргатсам?!
Ёруқ кундуз, қоронғу кечада анжум киби бўлғай,
Чекиб гар ох дудини, кўнгул ўтини тутратсам.
Кўзум равшанлиғида бўлғай, эй Бобур, баса камлиғ,
Агар қоши била юзин ҳилолу кунга ўхшатсам.

Ҳар кимки вафо қилса, вафо топқусидур!
Ҳар кимки жафо қилса, жафо топқусидур!
Яхши киши кўрмагай ёмонлиқ ҳаргиз,
Ҳар кимки ёмон бўлса, жазо топқусидур!

Юз шукр де, Бобурки, карими Ғаффор,
Берди санга Синду Ҳинду мулки бисёр.
Иссиқлиғиға гар сенга йўқтур тоқат,
Совуқ юзини кўрай десанг, Ғазни бор.

ДИҚҚАТ! ТАНЛОВ!

«МИЛЛИЙ ТИКЛАНИШ» ИЖТИМОИЙ-СИЙОСИЙ ГАЗЕТАСИ ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИГА САБОҚ
БЕРАЁТГАН ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ ЎҚИТУВЧИЛАРИ УРТАСИДА

«ЎЗБЕК ТИЛИ – МЕНИНГ ТИЛИМ»

МАВЗУСИДА ИНՇОЛАР ТАНЛОВИНИ ЎТҚАЗАДИ.

Ғолиб

2024

сўм пул мукофоти билан
тақдирланади.

ЮТУҚЛАР ҒОЛИБ ҚАМДА
ОМАДЛИ УСТОЗЛАРГА
2024 йилнинг сентябрь ойида –
Ўқитувчи ва мураббийлар
байрами арафасида
топширилади.

Мурожаат учун: (90) 245-18-10

ШУННГДЕК, ТАНЛОВДА 30 НАСАФ ҚУШИМЧА НОМИНАЦИЯЛАР
БЎЙИЧА ҲАМ ҒОЛИБЛАР АНИҚЛАНАДИ.

«МИЛЛИЙ
ТИКЛАНИШ»
ДЕМОКРАТИК
ПАРТИЯСИНИНГ
ИЖТИМОЙ-
СИЙОСИЙ
ГАЗЕТАСИ

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Alisher QODIROV – kengash raisi

Akmal SAIDOV,
Abror PO'LATOV,
Amriddin BERDIMURODOV,
Akmal JUMABOYEV,
Bahodir MAMATXONOV,
Ilhom ABDULLAYEV,
Ibrohim G'OFUROV,
Iroda DADAJONOVA,
Minhojiddin MIRZO,
Nuriyman ABULXASAN,

Odiljon TOJIYEV,
Olim O'SAROV,
Otabek JIYANBOYEV,
Ozodbek NAZARBEKOV,
Ortiqali QOZOQOV,
To'lqin TESHABOYEV,
Feruz MUHAMMEDJANOVA,
Xurshid DO'STMUHAMMAD,
Sherzodxon QUDRATXO'JA,
Shuxratjon AXUNDJANOV.

Bosh muharrir:
Mirodil ABDURAHMONOV

TAHRIRIYAT
MANZILI:

Toshkent shahri,
Uchtepa tumani,
Maqsud Shayxzoda
ko'chasi, 1 A-uy.
Gazeta tahririyat
kompyuter markazida
terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri
tahririyat nuqtai
nazaridan farq qilishi
mumkin.

Gazetada Internet
ma'lumotlari
va suratlaridan
foydalanildi.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy
e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflariga
qaytarilmaydi.

NAVATCHI MUHARRIRLAR:
Abdug'afur OMONBOYEV,
Mahbuba KARIMOVA
NASHR UCHUN MAS'UL:
Ma'murjon YO'LDOSHEV
NAVATCHI:
Feruz XODJAYEVA
DIZAYN GURUHI:
Asilbek QUDRATOV,
Firdavs HAMIDULLAYEV

Elektron pochta:
mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida chop etildi.
Korxonaning manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy

2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi
tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.
Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

Adadi – 5 036.
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.
Oqq'oz bichimi: 350x587. Hajmi: 4 bosma taboq
Buyurtma: G – 221
Bosishga topshirish vaqti 21:00.
Topshirildi 02:10

Telefon:
(97) 755-10-11

ISSN 2010-7714

123456